

**ART PEDAGOGIKASI VOSITASIDA BOSHLAG'ICH TA'LIMDA
IJODKORLIKNI BOSHQARISH VA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI**

Hasanova Shalola Farxodovna

Buxoro davlat universiteti ilmiy bo'limi mutaxssisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda art-pedagogika vositalaridan foydalanishning imkoniyatlari, shuningdek, bu jarayonni boshqarishning menejment yondashuvlari atroflicha ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda ijodkorlikning mohiyati, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari nuqtayi nazaridan uning rivojlanish psixologik-pedagogik asoslari, art-pedagogikaning turli shakllari va ularning ijodiy salohiyatni o'stirishdagi o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: art-pedagogika, ijodkorlik, ijodkorlikni boshqarish, ijodkorlikni rivojlantirish, ta'lim menejmenti, san'at vositalari, ijodiy salohiyat, menejment yondashuvi, pedagogik texnologiyalar.

Аннотация. В данной статье подробно рассмотрены возможности использования средств арт-педагогики в развитии творческих способностей учащихся в учреждениях начального образования, а также управленческие подходы к управлению этим процессом. В исследовании проанализирована сущность творчества, психолого-педагогические основы его развития с точки зрения возрастных особенностей младших школьников, различные формы арт-педагогики и их роль в развитии творческого потенциала.

Ключевые слова: арт-педагогика, креативность, управление творчеством, развитие творчества, управление образованием, средства искусства, творческий потенциал, управленческий подход, педагогические технологии.

Annotation. This article covers in detail the possibilities of using art pedagogy tools in the development of the creativity of students in primary education institutions, as well as management approaches to managing this process. The study analyzed the essence of creativity, its psychological and pedagogical foundations of development from the point of view of the age characteristics of Primary School students, various forms of art pedagogy and their role in the cultivation of creative potential.



Keywords: art-pedagogy, creativity, creativity management, development of creativity, Educational Management, art tools, creative potential, management approach, pedagogical technologies.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim va ilm-fan sohasidagi farmonlari, qarorlari va strategik yo'nalishlari mamlakatda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uning sifatini oshirish va jahon standartlari darajasiga ko'tarishni ko'zda tutadi. Bu islohotlarning markazida har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalash g'oyasi turadi. Zamonaviy dunyoda yashash va faoliyat yuritish uchun raqobatbardosh bo'lish, o'zini har tomonlama namoyon eta olish, yangiliklar yaratishga qodir bo'lish eng muhim talablardan biridir. Shu bois, ta'lim jarayoniga, xususan, boshlang'ich ta'limga ijodkorlikni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Ijodkorlik nafaqat adabiyot, musiqa, rassomchilik kabi san'at sohalarida, balki kundalik hayotda, fan va texnika yangiliklarini yaratishda, ijtimoiy muammolarni hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Мавзунинг dolzarbligi. Boshlang'ich ta'lim bosqichi bolaning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu davrda bolaning dunyoqarashi, tafakkuri, qiziqishlari, ijodiy salohiyati dastlabki izlarini oladi. Kichik yoshdagi bolalarning tabiiy jo'shqinligi, kuzatuvchanligi, ularning narsalarga yangicha ko'z bilan qarashga intilishi ijodkorlik uchun noyob imkoniyatlar yaratadi. Shu sababli, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni ijodiy faoliyatga yo'naltirish, ularda ijodiy tafakkurni, tasavvurni, fantaziyani, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish, ularning o'zini erkin va to'liq ifoda etishiga sharoit yaratish o'ta muhimdir. Ijodiy faoliyat jarayonida bolalar nafaqat yangi bilimlar oladilar, balki ularni amalda qo'llashni, o'z fikrlarini mustaqil bayon etishni, hatto xatolardan saboq chiqarishni ham o'rganadilar.

Mavzu metodologiyasi. Ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashda menejmentning o'rni beqiyos. Ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlarini to'g'ri tashkil etish, resurslarni samarali taqsimlash, pedagogik jarayonlarni loyihalash va nazorat qilish o'quv-tarbiya ishlarining muvaffaqiyatini belgilaydi. Boshlang'ich ta'limda ijodkorlikni rivojlantirish samaradorligini oshirish uchun esa faqat an'anaviy metodikalar yetarli bo'lmaydi. Bunda art-pedagogika vositalarining o'rni alohida ajralib turadi. Art-pedagogika san'atning turli shakllaridan (vizual san'at, musiqa, teatr, raqs, adabiyot) foydalangan holda, o'quvchilarning ijodiy salohiyatini ochishga, ularda

estetik didni shakllantirishga, hissiy dunyosini boyitishga xizmat qiladi. Ta'lim menejmenti va art-pedagogikaning uyg'unlashuvi – bu ijodkorlikni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish, uni tizimli tashkil etish, boshqarish va samaradorligini oshirish imkonini beradi. Art-pedagogik faoliyatni boshlang'ich ta'lim muassasasi menejment tizimiga integratsiya qilish orqali ijodiy rivojlanish jarayonini yanada samaraliroq tashkil etish mumkin.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – boshlang'ich ta'lim muassasalarida ijodkorlikni rivojlantirish jarayonini boshqarish va samaradorligini oshirishda art-pedagogikaning o'rni va imkoniyatlarini ta'lim menejmenti nuqtai nazaridan ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- ✓ Ijodkorlikning mohiyati, rivojlanish bosqichlari va uni boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslarini o'rganish.
- ✓ Art-pedagogika tushunchasi, uning vositalari, uslublari va ijodkorlikni rivojlantirishdagi o'ziga xosligini tahlil qilish.
- ✓ Ta'lim muassasasi menejmentining ijodkorlikni rivojlantirishdagi o'rni va funksiyalarini aniqlash.
- ✓ Art-pedagogikani ta'lim muassasasi menejmenti tizimiga integratsiya qilish mexanizmlarini ishlab chiqish.
- ✓ Ijodkorlikni boshqarish va uning samaradorligini oshirish bo'yicha menejment yondashuvlarini tadbiq etish.
- ✓ Art-pedagogika vositasida ijodkorlikni rivojlantirish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar va loyihalar samaradorligini baholash.
- ✓ Boshlang'ich ta'lim muassasasi rahbari va pedagoglariga ijodkorlikni boshqarish va rivojlantirish bo'yicha menejment va art-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish.

Ushbu tadqiqotning natijalari boshlang'ich ta'lim muassasalarida ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan menejment strategiyalarini ishlab chiqishda nazariy va metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotda taklif etiladigan art-pedagogik vositalar, boshqaruv mexanizmlari va menejment yondashuvlari ta'lim muassasasi rahbariyati va pedagog xodimlari uchun amaliy qo'llanma bo'lib, o'quvchilarning ijodiy salohiyatini yanada samarali ochishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari ta'lim menejmenti va art-pedagogika sohalaridagi mavjud nazariy bilimlar boyishiga hissa qo'shadi.

Mavzu tadqiqotida quyidagi nazariy usullar va metodlardan foydalanildi:



1. Tizimli yondashuv: O'quv-tarbiya jarayonini yaxlit tizim sifatida, o'zaro bog'liq elementlar (o'quvchi, o'qituvchi, art-pedagogik vositalar, menejment mexanizmlari, ijodiy muhit) majmui sifatida tahlil qilish. Ijodkorlikni rivojlantirish jarayonining boshlang'ich ta'lim muassasasi menejmenti tizimiga integratsiyasini tushunish.
2. Qiyosiy tahlil: Turli mamlakatlar va ta'lim tizimlaridagi art-pedagogika va ijodkorlikni rivojlantirish bo'yicha mavjud yondashuvlarni, menejment amaliyotini o'rganish va qiyoslash.
3. Sistem-funksional tahlil: Ta'lim muassasasi menejmentining ijodkorlikni rivojlantirishdagi turli funksiyalarini (rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish, nazorat qilish) va ularning art-pedagogik vositalar bilan o'zaro aloqadorligini aniqlash.
4. Adabiyotlar tahlili: Ijodkorlik, art-pedagogika, ta'lim menejmenti, boshlang'ich ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi sohasidagi ilmiy-nazariy manbalar, monografiyalar, dissertatsiyalar, maqolalar va dissertatsiyalar tahlili asosida mavzuning nazariy qismini shakllantirish.
5. Model ishlab chiqish: Art-pedagogikani menejment tizimiga integratsiya qilishning modelini, ijodkorlikni boshqarish va rivojlantirishning boshqaruv tizimi modelini ishlab chiqish.

Shu bilan birga quyidagi empirik usullar va metodlar ham qo'llanildi:

1. Kuzatuv (Observatsiya): Boshlang'ich sinf darslari, ijodiy mashg'ulotlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonini kuzatish orqali o'quvchilarning ijodiy faolligini, ularning art-pedagogik vositalarga munosabatini, o'qituvchining ijodkorlikni rag'batlantirish usullarini o'rganish. Maktab menejmentining ijodiy muhitni yaratishdagi rolini baholash.
2. Suhbat va intervyu: Ta'lim muassasasi rahbari, metodistlar, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, art-pedagoglar, psixologlar va o'quvchilar bilan maqsadli suhbatlar o'tkazish orqali ijodkorlikni rivojlantirishdagi mavjud muammolar, menejment yondashuvlari, art-pedagogikaning samaradorligi va uni yanada takomillashtirish yo'llari haqida ma'lumotlar olish.
3. So'rovnoma (Anketalashtirish): O'qituvchilar, ota-onalar va ba'zi hollarda o'quvchilar o'rtasida ijodkorlikni rivojlantirish jarayonining menejmenti va art-pedagogika vositalarining samaradorligi yuzasidan so'rovnomalar o'tkazish.
4. Pedagogik tajriba-sinov (Eksperiment): Tadqiqot natijalariga asoslanib ishlab chiqilgan art-pedagogik texnologiyalar va menejment usullarining samaradorligini



aniqlash maqsadida boshlang'ich ta'lim muassasalarida tajriba-sinov ishlarini tashkil etish. Bu jarayonni nazorat guruhi va tajriba guruhlari ishtirokida amalga oshirish.

5. Pedagogik ijodiy mahsulotlarni tahlil qilish: O'quvchilarning ijodiy ishlari (rasmlar, modellar, she'rlar, hikoyalar, sahna ko'rinishlari, musiqaviy ijrolar va boshqalar)ni tahlil qilish orqali ularning ijodkorlik darajasini va rivojlanishini baholash.

6. Menejment hujjatlarini tahlil qilish: Ta'lim muassasasi ustavi, o'quv rejalari, ish rejalari, ijodiy rivojlanish dasturlari, yo'riqnomalar va boshqa menejment hujjatlarini tahlil qilish orqali ijodkorlikni boshqarish va rivojlantirishga oid siyosatlarni o'rganish.

Mazkur tadqiqot ishini olib borishda bir qator pedagogik yondashuvlardan foydalanish tavsiya etildi:

1. Sistem-strukturali yondashuv: Ijodkorlikni rivojlantirish jarayonini tizimli, uning tarkibiy qismlarini va ularning o'zaro aloqadorligini o'rganish.

2. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv: O'quvchining shaxsiy ijodiy salohiyatini ochishga, uning qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan jarayonni tashkil etish.

3. Faoliyatga asoslangan yondashuv: Ijodkorlikni rivojlantirishda faol, ijodiy faoliyat turlarini ustun qo'yish.

4. Menejerlik yondashuvi: Ta'lim jarayonini boshqarishda ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan samarali menejment strategiyalarini qo'llash.

5. Innovatsion yondashuv: Ijodkorlikni rivojlantirishda yangi pedagogik texnologiyalar, art-pedagogik vositalar va menejment usullaridan foydalanish.

Mazkur metodologiya doirasida amalga oshiriladigan tadqiqotlar, boshlang'ich ta'lim muassasalarida ijodkorlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy masalalariga chuqur yondashish hamda ushbu jarayonni boshqarishning samarali usullarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Xulosa. Boshlang'ich ta'lim yosh davrida bolaning ijodiy salohiyatini shakllantirish, ularda mustaqil fikrlash, muammolarni yechish ko'nikmalarini rivojlantirish, tasavvur, fantaziya va ijodiy tafakkurni o'stirish uchun noyob imkoniyatlar yaratadi. Bu davrda ijodkorlikni rag'batlantirish kelajakda har tomonlama barkamol, ijodkor shaxsni tarbiyalashning muhim poydevoridir.

Art-pedagogika (vizual san'at, musiqa, teatr, adabiyot va boshqalar) vositalaridan foydalanish o'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos va samarali usuli hisoblanadi. San'at orqali bolalar o'z hissiyotlarini erkin ifoda etishlari, dunyoni yangicha qabul qilishlari, turli ijodiy texnikalarni o'zlashtirishlari va mavjud bilimlarni



yangicha yo'llar bilan qo'llashlari mumkin. Art-pedagogika o'quvchilarning estetik didini o'stirishga, hissiy rivojlanishiga va ijodiy muhitni yaratishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Axmadaliyeva, M. X. (2021). Boshlang'ich ta'limda ijodkorlikni rivojlantirishda rassomchilikning o'rni. Ilmiy maqola. "Ma'rifat va o'qitish", №2.
2. Bahodirova, N. A. (2019). Ta'lim jarayonida menejmentning ijodkorlikni rivojlantirishdagi ahamiyati. Ilmiy maqola. "Ta'lim texnologiyalari", №1.
3. Bekmurodova, Z. B. (2017). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirishda musiqa va teatr san'atidan foydalanish. Pedagogika fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent.
4. Ermetova, G. R. (2020). Boshlang'ich ta'lim muassasalarida ijodkorlikni boshqarish: Menejment yondashuvlari. Ilmiy maqola. "Ilm-fan va innovatsiya", №3.
5. G'ulomova, H. H. (2016). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. Pedagogika fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent.